O'QISH SAVODXONLIGI: TUSHUNCHASI VA XALQARO BAHOLASH DASTURIDAGI (PISA) TALQINLARI

Shomuratova Sarvinoz
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24338254

Annotatsiya. Maqolada o'qish savodxonligi tushunchasi va uning PISA 2018 ramkasidagi talqini tahlil qilinadi. O'qish savodxonligining tarkibiy qismlari (tushunish, foydalanish, baholash va mulohaza yuritish), o'qishga jalb etilganlik, statik va dinamik matnlar hamda shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishdagi o'rni yoritiladi; o'qish savodxonligi funksional savodxonlikning asosiy komponenti sifatida ko'riladi. PISA 2025 natijalari kontekstida o'qish ko'rsatkichlarining pasayishi va bu tendensiyaning O'zbekiston uchun ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, PISA, funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash, metakognitiv strategiyalar, o'qishga jalb etilganlik, dinamik matnlar, O'zbekiston.

Tez o'zgarayotgan zamonda matn shaklidagi axborot oqimlarining soni va xilma-xilligi oshib bormoqda, odamlardan esa matnlardan yangi va murakkabroq usullarda foydalanish kutilmoqda. Shaxsiy rivojlanish, akademik muvaffaqiyat, iqtisodiy va ijtimoiy faollik uchun zarur bo'lgan o'qish savodxonligi 20 yil oldingi ko'nikmadan farq qiladi va 20 yildan keyin yana o'zgarishi shubhasiz. Asosiy axborot manbai qog'ozdan raqamli shaklga o'tgani sayin matnning formati va tuzilishi ham o'zgardi. Bu o'quvchidan yangi kognitiv strategiyalarni va maqsadli o'qishni rivojlantirishni talab qiladi. Shu sababli o'qish savodxonligidagi muvaffaqiyat shunchaki o'qiy olish va oddiy matnni tushunishdan farq qiladi [1]. Ba'zi o'quvchilar oliy ta'limda o'qishi, akademik yoki kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishi, boshqalari esa maktabni tugatgach ishga joylashishi mumkin. Qiziqishlaridan qat'i nazar, o'qish savodxonligi o'quvchilarning jamiyatdagi faol ishtiroki hamda iqtisodiy va shaxsiy hayoti uchun muhimdir [1].

Stanford universiteti tadqiqotchilarining hisob-kitoblariga ko'ra, PISA natijalarining yaxshilanishi mamlakat iqtisodiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [7]. Bu o'qish savodxonligining iqtisodiyotga ta'sirini ham bevosita ko'rsatadi. Ijtimoiy hayotdagi ta'siri esa fikrlash, ongli qaror qabul qila olish, bilim olish va o'zini rivojlantirish orqali atrofdagi muhitni yaxshilashda namoyon bo'ladi.

2025-yilgi PISA hisoboti o'qish savodxonligi bo'yicha xavotirli natijalarni va ularning sabab-oqibatlarini e'lon qildi. 2015–2025-yillarda OECD mamlakatlarida o'qish bo'yicha o'rtacha ball 28 ballga pasaygan [8]. Bu faqat O'zbekistonda emas, butun dunyoda kuzatilayotgan o'zgarish. Ammo O'zbekiston uchun u alohida ahamiyatli: mamlakat PISA 2022 da o'qish bo'yicha 336 ball to'plagan (OECD o'rtachasi 476) [9], 2025-yilda esa o'qish natijalari OECD tomonidan taqqoslanadigan shaklda e'lon qilinmadi [10]. Demak, biz hali qoniqarli natijalarni qayd etib ulgurmadik. Pasayish tendensiyalari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar o'quvchilarda yetarli savodxonlik darajasini shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda, ta'lim sohasida barqaror natijaga erishish tajribasi va tizimi yetarli bo'lmagani esa salbiy oqibatlarni kuchaytirmoqda. Shu sababli yosh avlod va mamlakat kelajagi uchun ikki karra e'tibor va mas'uliyat bilan harakat qilish lozim.

PISA natijalariga ko'ra, barcha o'rganish jarayonlarining fundamental asosi bo'lgan o'qish savodxonligi so'nggi o'n yillikda pasayib bormoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt davrida eng zarur

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ko‘nikmalar, ya’ni ma’lumotni baholash, turli manbalar o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnata olish va o‘qilgan matnga tanqidiy yondasha olish sustlashgani natijalarda namoyon bo‘lmoqda [8]. Matn haqida tez, lekin xato javob bergan o‘quvchilar ulushi 2018–2025-yillarda deyarli ikki barobar oshib, 9% ga yetgan [8]. Axborot oqimi yuqori bo‘lgan davrda o‘quvchilarning matn haqida chuqurroq fikr yuritish ko‘nikmasi pasayib bormoqda.

Umuman, har qanday o‘rganish jarayoni matnni o‘qish va u haqida fikr yuritish, ya’ni yangi materialning miyadagi mavjud bilimlar bilan birgalikdagi kognitiv jarayonlari orqali yuzaga keladi. O‘qish savodxonligi bilan bir qatorda raqamli savodxonlik haqida ham gapirish joiz, chunki bugungi kunda ko‘pgina o‘qish jarayonlari raqamli shaklda amalga oshmoqda. O‘qib tushunishning asosiy komponentlari, ya’ni matnga diqqat qilish, talqin qilish, sintez qilish va sabab-oqibatni tushuna olish, har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘qish bilan bog‘liq kognitiv va metakognitiv jarayonlarni o‘quvchilarda shakllantirish ularning o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi [11], bu esa maktablarda to‘g‘ri asos qo‘yish kerakligini yana bir bor tasdiqlaydi. PISA o‘qish savodxonligini shaxsning o‘z maqsadlariga erishish, bilim va salohiyatini rivojlantirish hamda jamiyatda ishtirok etish uchun matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ularni baholash, ular haqida mulohaza yuritish va ular bilan faol shug‘ullanish qobiliyati sifatida ta’riflaydi [1].

Nima uchun “o‘qish” emas, “o‘qish savodxonligi” atamasi ishlatiladi? Ko‘pchilik o‘qish deganda dekodlashni, ya’ni yozilgan harflarni tovushlarga aylantirib so‘z hosil qilishni tushunadi. O‘qish savodxonligi esa bir qancha kognitiv va lingvistik kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi: so‘zlarni dekodlay olishdan tortib grammatika, lingvistik va matn tuzilishi bo‘yicha bilimlargacha, shuningdek dunyo haqidagi mavjud bilimlarga yangi matndagi ma’noni birlashtira olish qobiliyatigacha. Shu bilan birga metakognitiv strategiyalar, ya’ni matnlarni tahlil qilishda to‘g‘ri strategiyani kerakli o‘rinda qo‘llay olish ham shu kompetensiyalarga kiradi. Metakognitiv strategiyalar o‘quvchi o‘qish jarayoni haqida o‘ylayotganda, uni nazorat qilayotganda va ma’lum maqsadga yo‘naltirayotganda faollashadi [1].

Tushunish o‘qilgan matnni inson miyasidagi mavjud bilimlar bilan integratsiya qila olishdir [12]. Eng kichik yoshdan boshlab o‘quvchilar harflarni tanib so‘z hosil qila olishi va bu so‘zlarning ma’nosini lug‘at boyligi yordamida anglashi kerak. Keyinchalik bu jarayon murakkablashib, turli mental modellarni, ya’ni matnning mavjud borliq bilan bog‘lanishini o‘z ichiga oladi. Ta’rifdagi “foydalanish” so‘zi o‘qilgan matndan tushunilgan ma’noni qo‘llay olishga ishora qiladi. PISA 2018 da “baholash” tushunchasi o‘qish jarayoni ko‘pincha muayyan maqsadga yo‘naltirilganini hisobga olish uchun qo‘shildi [1]. O‘quvchi matnni shunchaki o‘qib chiqmasligi, undagi ma’lumotlarni o‘z maqsadiga muvofiq tahlil qilishi va baholashi kerak. Masalan, o‘quvchi sog‘lom ovqatlanish haqida ikkita maqola o‘qiyapti: birinchisida ma’lum mahsulotning foydasi, ikkinchisida zarari haqida yozilgan. O‘quvchi quyidagi savollarga javob bera olishi kerak:

- Qaysi maqoladagi dalillar ishonchliroq?
- Muallif o‘z fikrini qanday dalillar bilan asoslagan?
- Muallifning nuqtayi nazari xolismi yoki bir tomonlamami?
- Ushbu ma’lumot mening maqsadimga qanchalik mos keladi?

Demak, **evaluating** (baholash) matndagi ma’lumotlarning ishonchliligi, dalillarning asoslanganligi va maqsadga muvofiqligini baholashdir. Tadqiqotlar mutaxassislar manbaning o‘zida qolmasdan, uni boshqa manbalar bilan solishtirib baholashini ko‘rsatgan [13].

O‘qish jarayonining interaktivligini ta’kidlash uchun “tushunish”, “foydalanish” va “baholash” tushunchalariga “mulohaza yuritish” ham qo‘shildi [1]. Bu yerda interaktivlik nimani anglatadi?

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

O'quvchi matnni o'qiyotganda faqat matndagi axborotni qabul qilmaydi: u o'zining avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasi, shaxsiy qarashlari, mavjud e'tiqod va tushunchalarini ham o'qish jarayoniga jalb qiladi. Masalan, o'quvchi ekologiya haqidagi matnni o'qiyapti, matnda plastik chiqindilarning tabiatga zarari haqida yozilgan. O'quvchi bu ma'lumotni o'z tajribasi bilan bog'laydi: u ko'chada plastik chiqindilarni ko'rgan, ularning tabiatga ta'siri haqida avval ham eshitgan. Natijada u matndagi axborotni shunchaki eslab qolmaydi, balki o'z bilimlari bilan taqqoslaydi va yangi xulosaga keladi. Demak, **reflecting on** (mulohaza yuritish) o'qilgan matn mazmunini avvalgi bilimlar, shaxsiy tajriba va mavjud qarashlar bilan bog'lash, ular asosida tahlil qilish va xulosa chiqarishdir. Mulohaza yuritish bir necha jarayonda namoyon bo'ladi:

- **Matn ichidagi va tashqarisidagi axborotni bog'lash.** O'quvchi matndagi ma'lumotlarni boshqa manbalardan olgan bilimlari bilan taqqoslaydi. Masalan, darslikdagi tarixiy ma'lumotni avval o'rgangan bilimlari bilan solishtiradi.
- **Muallifning fikrlarini tahlil qilish.** O'quvchi muallifning da'volarini va ularni asoslash uchun keltirilgan dalillarni baholaydi. Masalan, muallifning fikri qanday asoslangan, keltirilgan dalillar yetarlimi, muallif o'z nuqtayi nazarini qanday ifodalagan, degan savollarga javob izlaydi.
- **Muallifning nuqtayi nazarini aniqlash.** O'quvchi muallifning mavzuga munosabati va pozitsiyasini tushunishga harakat qiladi.
- **Matnning mazmuni va tuzilishi haqida fikr yuritish.** O'quvchi nafaqat matnda nima deyilganini, balki nima sababdan aynan shunday tuzilganini ham tahlil qiladi. Masalan, nima uchun muallif matnni savol bilan boshlagan, nima uchun statistik ma'lumotlardan foydalangan.
- **O'z dunyoqarashini qayta ko'rib chiqish.** Matn ustida mulohaza yuritish o'quvchining dunyo haqidagi tasavvurlarini ham o'zgartirishi mumkin. Masalan, o'quvchi avval ma'lum masala haqida bir fikrda bo'lgan, lekin yangi dalillarni o'qib, o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqadi.

O'qish savodxonligi ta'rifidagi ushbu to'rtta ko'nikmaning har biri zarur, biroq ularning hech biri alohida holda muvaffaqiyatli o'qish savodxonligini ta'minlash uchun yetarli emas [1].

O'qishga jalb etilganlik

O'qish savodxonligiga ega shaxs nafaqat yaxshi o'qish uchun zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'ladi, balki o'qishni qadrlaydi va undan turli maqsadlarda foydalanadi. Bu yerda muhim farq bor: o'quvchi yaxshi o'qishi va matn mazmunini tushunishi mumkin, lekin bu uning o'qishga qiziqishini yoki mustaqil ravishda kitob o'qishini anglatmaydi. Masalan, birinchi o'quvchi o'qituvchi topshiriq bergani uchun matn o'qiydi. Ikkinchi o'quvchi esa yangi ma'lumot olish, muammosiga yechim topish yoki shunchaki zavqlanish uchun mustaqil ravishda kitob o'qiydi. Ikkala o'quvchida ham o'qish ko'nikmasi bo'lishi mumkin, ammo ikkinchisida o'qishga jalb etilganlik (**engagement**) kuchliroq namoyon bo'ladi. OECD "engagement" tushunchasini bir nechta affektiv (hissiy) va xulq-atvor xususiyatlari bilan izohlaydi [1]:

- o'qishga qiziqish;
- o'qishdan zavqlanish;
- nimani, qachon va qanday o'qishni tanlash va nazorat qilish hissi;
- ijtimoiy ishtirok, ya'ni o'qilgan matn haqida boshqalar bilan fikr almashish;
- turli janr va shakldagi matnlarni muntazam va tez-tez o'qish.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

OECD fikricha, ta'limning maqsadi faqat o'quvchilarda o'qish mahoratini shakllantirish emas, balki ularda o'qishga bo'lgan qiziqish, ichki motivatsiya va muntazam o'qish odatini ham rivojlantirishdir [1].

Matn tushunchasining kengayishi

"Matn" tushunchasi grafik shaklda ifodalangan barcha til materiallarini, ya'ni qo'lda yozilgan, bosma yoki ekran orqali taqdim etilgan matnlarni qamrab oladi. PISA faqat an'anaviy kitob va darsliklardagi matnlarni hisobga olmaydi. OECD matnlarni taqdim etilish xususiyatiga ko'ra ikki turga ajratadi [1]:

- **Fixed texts, ya'ni o'zgarmas (statik) matnlar.** O'quvchi matnni odatdagi ketma-ketlikda o'qiydi. Masalan, bosma kitobdagi hikoya yoki maqola.
- **Dynamic texts, ya'ni dinamik matnlar.** O'quvchi matn bilan ishlash jarayonida o'qish yo'nalishini o'zi tanlaydi. Masalan, internetdagi qidiruv natijalari, giperhavolalar va o'zaro bog'langan veb-sahifalar.

Dinamik matnlarda umumiy hajm va uzunlikni oldindan aniqlash qiyin, chunki elektron muhitda qog'ozdagidek fizik chegaralar ko'rinmaydi. Matnning turli qismlari giperhavolalar (hyperlinks) orqali boshqa matnlar bilan bog'langan bo'ladi; qidiruv natijasida bir nechta qisqartirilgan matn taqdim etilishi mumkin. O'quvchi ma'lumotni topish uchun o'z o'qish yo'nalishini mustaqil shakllantirishi kerak. Masalan, o'quvchiga "O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanish haqida ishonchli ma'lumot toping va ikki manbani taqqoslang" topshirig'i berildi. O'quvchi qidiruv tizimidan foydalanadi, bir nechta manbani ochadi, kerakli ma'lumotlarni izlaydi, havolalar orqali boshqa sahifalarga o'tadi, manbalarning ishonchliligini baholaydi va o'z xulosasini shakllantiradi. Bu oddiy matnni tushunishdan murakkabroq faoliyat bo'lib, axborotni izlash, tanlash, baholash va integratsiyalash ko'nikmalarini talab qiladi.

Shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarga erishish

"O'z maqsadlariga erishish, bilim va salohiyatini rivojlantirish hamda jamiyat hayotida ishtirok etish uchun" iborasi orqali OECD o'qish savodxonligining yakuniy maqsadini tushuntiradi [1]. O'qish savodxonligi nima uchun kerak? U uchta asosiy vazifani bajaradi:

- **Shaxsiy maqsadlarga erishish** — oliy ta'limga kirish, kasb egallash, ish topish yoki kundalik hayotdagi muammolarni hal qilish.
- **Bilim va salohiyatni rivojlantirish** — yangi bilimlarni egallash, dunyoqarashni kengaytirish, shaxsiy rivojlanish va uzluksiz ta'lim olish.
- **Jamiyat hayotida ishtirok etish** — ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarda faol qatnashish, ongli qarorlar qabul qilish.

OECD o'qish savodxonligi namoyon bo'ladigan vaziyatlarni juda keng talqin qiladi [1]:

- **Shaxsiy hayot (private)** — shaxsiy qiziqishlar, kundalik ehtiyojlar.
- **Jamoat hayoti (public)** — jamiyatdagi jarayonlar, ijtimoiy masalalar.
- **Maktab (school)** — ta'lim olish va o'quv faoliyati.
- **Ish faoliyati (work)** — kasbiy faoliyat va mehnat munosabatlari.
- **Uzluksiz ta'lim (lifelong learning)** — butun hayot davomida bilim olish.
- **Faol fuqarolik (active citizenship)** — jamiyatda ongli va faol fuqaro sifatida ishtirok etish.

O'qish savodxonligi insonga nafaqat o'z ehtiyojlarini qondirish, balki jamiyatga hissa qo'shish imkonini ham beradi. Masalan, ishga joylashishda mehnat shartnomasini tushunish, ijtimoiy masalalar bo'yicha turli manbalardan ma'lumot olish, yangiliklarning ishonchliligini tekshirish, jamiyatdagi muammolar yuzasidan asosli fikr bildirish, o'z huquq va majburiyatlarini tushunish shular jumlasidandir.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

OECD keltirgan tadqiqotlarga ko'ra, yuqori o'qish savodxonligi ish bilan ta'minlanish imkoniyatlari, sog'liq va ayrim ijtimoiy ko'rsatkichlar bilan ham bog'liq [1]. Bu yerda yana bir muhim tushuncha bor: **critical stance**, ya'ni tanqidiy pozitsiya. Bu insonning matnda berilgan barcha ma'lumotlarni shartsiz qabul qilmasligi, ularni tekshirishi, tahlil qilishi va mustaqil fikrga ega bo'lishidir. OECD buni shaxsiy erkinlik, mustaqillik va o'z imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'laydi [1]. Mutaxassislar kelishuviga ko'ra, tanqidiy fikrlash tahlil, baholash, xulosa chiqarish va talqin qilish kabi kognitiv ko'nikmalarni o'z ichiga oladi [14].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2019. DOI: 10.1787/b25efab8-en.
2. Gray W.S. The Teaching of Reading and Writing: An International Survey. Paris: UNESCO, 1956.
3. UNESCO. Records of the General Conference, Twentieth Session, Paris, 24 October – 28 November 1978. Vol. 1: Resolutions. Paris: UNESCO, 1979.
4. Street B.V. Literacy in Theory and Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 1984.
5. UNESCO. The Plurality of Literacy and its Implications for Policies and Programmes (Position Paper). Paris: UNESCO, 2004.
6. Council of the European Union. Council Recommendation of 22 May 2018 on key competences for lifelong learning // Official Journal of the European Union, C 189, 4.6.2018, pp. 1–13.
7. Hanushek E.A., Woessmann L. The Knowledge Capital of Nations: Education and the Economics of Growth. Cambridge, MA: MIT Press, 2015.
8. OECD. PISA 2025 Results (Volume I): Future-Ready Students. Paris: OECD Publishing, 2026. URL: https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2025-results-volume-i_73451bc5-en.html
9. Djalilov K. PISA-2022 Results: Implications for Language and Literature Education in Uzbekistan // International Scientific Journal (Scientists.uz), 2024, 3(9). DOI: 10.5281/ZENODO.13834636.
10. OECD. PISA 2025 Results (Volume I): Country Notes: Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2026. URL: https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2025-results-volume-i-country-notes_2d4ff9ea-en/uzbekistan_f977081e-en.html
11. Khoiri M., Suyono, Harsiati T. Unlocking Minds: The Nexus of Reading Literacy and Cognitive Strategies in Educational Advancement // College & Research Libraries News, 2025, 86(4), p. 157. DOI: 10.5860/crln.86.4.157.
12. Kintsch W. Comprehension: A Paradigm for Cognition. Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
13. Wineburg S., McGrew S. Lateral reading and the nature of expertise: Reading less and learning more when evaluating digital information // Teachers College Record, 2019, 121(11), pp. 1–40.
14. Facione P.A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report). Millbrae, CA: California Academic Press, 1990.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.